

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI  
OLIIY TA'LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI

FARG'ONA DAVLAT UNIVERSITETI

**FarDU.  
ILMIY  
XABARLAR**

1995-yildan nashr etiladi  
Yilda 6 marta chiqadi

6-2023

**НАУЧНЫЙ  
ВЕСТНИК.  
ФерГУ**

Издаётся с 1995 года  
Выходит 6 раз в год

<b>M.I.Nurmatova</b>	
Talabalarda oila iqtisodiga oid kompetensiyalarni takomillashtirishning nazariy va amaliy jihatdan tadqiq qilinishi .....	107
<b>D.B.Mahametova</b>	
Use of information technologies in education.....	112
<b>M.Norinov</b>	
Bo'lajak texnik mutaxassislarning kasbiy kompetensiyasini multimedia vositalari asosida bosqichma-bosqich rivojlantirish texnologiyasi.....	115
<b>G.T.Hojikarimova</b>	
Integrativ yondashuv asosida bo'lajak texnologik ta'lim o'qituvchilarini maxsus kompetensiyalarini shakllantirish pedagogik muammo sifatida .....	119
<b>X.M.Jo'rayev</b>	
Kimyo o'qituvchilarining o'zini-o'zi rivojlantirish omillari .....	123
<b>N.B.Odilxo'jazoda</b>	
Kimyo o'qituvchisi kasbiy kompetentligini aniqlash metodikasini takomillashtirishning pedagogik-psixologik asoslari.....	128
<b>B.T.Tojibayev, S.S.Isokov</b>	
Globalashuv kontekstida – ta'lim .....	132
<b>D.Q.Oxunova</b>	
Bo'lajak o'qituvchilarning kasbiy bilimlarni kognitiv idrok etish kompetensiyalari.....	136
<b>N.E.Yuldasheva</b>	
Jismoniy tarbiya o'qituvchilarining kasbiy kompetentligini rivojlantirishda integrativ yondashuvning o'ziga xos xususiyatlari .....	140
<b>B.X.Baydjanov, Y.E.Mamatova</b>	
Boshlang'ich ta'limda mediamadaniyat va texnoetikani o'qitish texnologiyasini takomillashtirish.....	144

---

FALSAFA

<b>Б.С.Ганиев</b>	
Социально-политические факторы повышения предпринимательской культуры в Узбекистане .....	150
<b>M.D.Pardaeva</b>	
Uchinchi renessans poydevorini yaratishda Navoiy Naqshbandiyona g'oyalarining ahamiyati.....	156
<b>Z.P.Nadirova</b>	
Intuitive cognition as a synergistic process.....	161
<b>X.X.Raxmatova</b>	
Naqshbandiylik – jahoniy ta'limot .....	165
<b>Z.A.Akhmedova</b>	
Donishning ta'lim va kadrlar tayyorlash tizimini isloh qilish haqidagi fikrlari tahlili.....	170
<b>B.X.Karimov</b>	
Ong muammosining ilmiy – falsafiy va psixologik talqini.....	175
<b>L.M.Karimova</b>	
Jamiyatni modernizatsiyalash sharoitida ayollarning ijtimoiy mobilligini takomillashtirish mexanizmlari .....	180
<b>M.M.Gulamova</b>	
Yangi O'zbekiston yoshlarini tarbiyalashda "Naqshbandiya Tariqati Nazariyotchisi" ta'limotining ahamiyati.....	185
<b>O.T.Sharipova</b>	
Xojagon tasavvufiy ta'limotida "Olami Kabir" haqida .....	189
<b>Sh.B.Sattorova</b>	
Mirzo Abdulqodir Bedilning inson va jamiyat haqidagi ta'limotida adolat va tenglik muammosini o'ziga xos tadqiqi.....	194
<b>B.X.Hamdammov</b>	
Boburning insonparvarlik – falsafiy qarashlari.....	200

**MIRZO ABDULQODIR BEDILNING INSON VA JAMIYAT HAQIDAGI TA'LIMOTIDA ADOLAT VA TENGLIK MUAMMOSINI O'ZIGA XOS TADQIQI****УНИКАЛЬНОЕ ИССЛЕДОВАНИЕ ПРОБЛЕМЫ СПРАВЕДЛИВОСТИ И РАВЕНСТВА ЧЕЛОВЕКА И ОБЩЕСТВА В УЧЕНИИ МИРЗЫ АБДУЛ КАДИРА БЕДИЛЯ****UNIQUE STUDY OF THE PROBLEM OF JUSTICE AND EQUALITY IN THE DOCTRINE OF HUMAN AND SOCIETY OF MIRZA ABDUL QADIR BEDIL****Sattorova Shalola Bobir qizi<sup>1</sup>**<sup>1</sup>Buxoro davlat universiteti mustaqil izlanuvchisi**Annotatsiya**

Muallif ushbu maqolasida mirzo Bedil ta'limotidagi adolat va inson va jamiyat tengligi muammosining o'ziga xos tadqiqotini tahlil qilib, bayon qilgan. Sof e'tiqod va e'tiqod, insonparvarlik, vatanparvarlik, adolat, mehr-oqibat va muhabbat kabi ezgu tushuncha va tuyg'ularni singdirish, o'zgalar bilan yashashda ma'naviy merosimizning o'rni va ahamiyatini e'tirof etish muhimdir.

**Аннотация**

В данной статье, автор проанализировал и описал уникальное исследование проблемы справедливости и равенства человека и общества в учении Мирзы Бедил. Важно признать роль и важность нашего духовного наследия в укоренении хороших понятий и чувств, таких как чистая вера и убеждения, гуманизм, патриотизм, справедливость, сострадание и любовь, жизнь с другими.

**Abstract**

In this article, the author analyzed and described a unique study of the problem of justice and equality of man and society in the teachings of Mirza Bedil. It is important to recognize the role and importance of our spiritual heritage in instilling good concepts and feelings such as pure faith and belief, humanism, patriotism, justice, compassion and love, living with others.

**Kalit so'zlar:** Buyuk Mug'ullar, gullagan davri, parchalanish, markazlashuv, imperiya, madaniyat**Ключевые слова:** Великие Моголы, расцвет, раздробленность, централизованность, империя, культура**Key words:** Great Mughals, heyday, fragmentation, centralization, empire, culture.**KIRISH**

Jahonda buyuk ajdodlarimiz tomonidan qoldirilgan ma'naviy me'ros bugungi kunda o'zlikni anglash harakati natijasida tarixiy xotirasi tiklanayotgan, uchinchi renessans asoslari shakllanayotgan davrda yosh avlod tarbiyasi uchun katta ahamiyatga ega. Insonda pokiza iymon va e'tiqod, insonparvarlik, yurtsevarlik, adolat, shafqat va muhabbat, o'zgalar dadri bilan yashash singari ezgu tushuncha va tuyg'ular ildiz otishida ma'naviy merosimizning o'rni va ahamiyatini allohida e'tirof etish muhim. Bu borada ayniqsa, Bedilning falsafiy ijodining bugungi kundagi ahamiyatini o'rganish muhim ahamiyat kasb etadi. Unda borliqni rotsional va irrotsional anglash, inson falsafasi, hind va musulmon madaniyatlarining o'zaro ta'sirini aniqlash, katta ahamiyatga ega. Bedil ijodida dunyoni botinay anglash, inson ruhiyatini kamol toptirish, o'zlikni anglash orqali borliqqa munosabatda bo'lish g'oyalari ilgari surilgan.

**ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODLAR**

Mirzo Abduqodir Bedil ijodini o'rganish uning zamondoshlari tomonidan informativ ravishda o'rganildi. Bedil haqida birinchi ma'lumot «Mir'ot ul xayol», Sherxon Ludining «Safinan Bexabar» (Mir Azamat Bexabar) va boshqa tazkirotlarda Bedil haqida ma'lumot beriladi, jumladan G'ulomali Balgiramining «Sarvi Ozod» tazkirotida.

Bedil zamondoshlarining ba'zi tazkiralari, shuningdek, Bedilning asarlari yoki qarashlari tilga olingan keyingi xronologiyalarda ayniqsa batafsil yoritilgan bo'lib, ular Bedilning hayotligida ham davrshunoslar e'tiborini tortganligidan dalolat beradi. atoqli mutafakkir va shoir bo'lib, u haqida «keng qalb» va «farishtalik fe'l-atvorli», «she'riy tafakkurning ravshanligi va go'zalligiga» intiluvchi inson sifatida so'zlagan. Ularning fikricha, mutafakkir Haqiqatni izlashdan zavq oladi

**NATIJALAR VA MUHOKAMA**

Hindistonda XVII-XVIII asrlarda bo'lgan ijtimoiy-siyosiy va g'oyaviy ziddiyatlar Bedilning ijtimoiy-siyosiy konsepsiyasiga katta ta'sir o'tkazgan. Ushbu davrda Hindistonda diniy va

## FALSAFA

millatlararo masala muhim ahamiyatga ega edi. Bedil o'z davrining ziyolilari orasida tarbiya olgan va ulg'aygan. Mazkur ziyolilar arab tilida faoliyat olib borishgan, Qur'on va hadislar, tasavvuf va she'riyat, hind falsafasi va adabiyotining bilimdonlari va san'at vakillari bo'lishgan. Bedil majzublar ta'sirida ko'p sayyohlik qilgan va shuning uchun ko'plab ijtimoiy muammolar va an'analar bilan yaqin tanishgan. Bularning barchasi Bedilning ijtimoiy-siyosiy, axloqiy va estetik qarashlarini shakllantirishga ta'sir qilgan. Bedilning ijtimoiy-siyosiy qarashlari musulmonlar va hindlar birligi g'oyasi asosida shakllantirilgan. Buning sababi shundaki, din ijtimoiy ongning ommaviy shakli bo'lgan va Hindistonning ijtimoiiy-iqtisodiy va madaniy rivojlanishini ifoda etgan (4, 24-25 b)..

Mirzo Abdulqodir Bedil jamiyat, uning tuzilishi, adolat va tenglik masalalariga katta e'tibor qaratgan. I.Mo'minovning "Bedilning falsafiy qarashlari", S.Ayniyning "Mirzo Abdulqodir Bedil" monografiyalarida va X.Ayniyning "Bedil" va "Irfon" poemasi, S.Saljuqiyning "Naqdi Bedil" ("Bedil tanqidi") asarlarida hamda K.Olimov, B.Hamdamlarning maqolalarid mutafakkirning ijtimoiy-siyosiy qarashlariga bir necha sahifalar bag'ishlangan. Aytib o'tilgan mualliflar qatorida Bedil ham barcha ilg'or mutafakkirlar kabi yomonlikni yo'q qilish va ezgulikni tasdiqlash yo'llarini izlaganligi, diniy bag'rikenglik g'oyalarini targ'ib qilganligi, diniy fanatizm, insonga qarshi bo'lgan diniy va mazhabparast marosimlarga qarshi chiqqanligidagi fikrini birday qo'llab-quvvatlashadi. Bedil asarlarida saroydagi hayot, adolatsizlik, tamagirlik, shaddodlik, o'zboshimchalik, aldov, munofiqlik hamda insonni majburan ishlatish tanqidga uchraydi.

O'z shuuringdan bo'l begona, Bedil  
Jaholat sozin chal devona, Bedil,  
Dud ila g'ubordir bu dunyo bari,  
Ko'z yum, sabr qolsin bu xona, Bedil.

Bedil bu misrada yashagan zamonasida munofiqlik, adolatsizlik, tengsizlik, jaholatsiz holatlarning mavjudligi va unga sabr qilish kerakligini bayon etadi.

Bedil falsafasida ijtimoiy-siyosiy mavzular o'z o'rniga ega. O'zining asarlarida u ijtimoiy hayotning salbiy tomonlarini ko'rsatishga harakat qilgan, jamiyatning tuzilmasini to'g'ri yolga qo'yish bo'yicha tavsiyalar bergan. O'zining jamiyat, ijtimoiy o'zgarishlar va davlat haqidagi qarashlarini u "Irfon" ("Bilish"), "Chahor unsur" ("To'rt unsur"), "Nakot" ("Hikmatlar") kabi asarlarida bayon qilgan. Bedilning ko'pgina ruboiylarida ijtimoiy-siyosiy va insonparvar qarashlar mavjud.

Faylasufning hayot katta farovonlik ekanligi va undan zavq olish kerakligi, inson o'z hayotining egasi bo'lishi zarurligi bo'yicha qarashlari alohid ahamiyatga ega. Bu yerda Umar Hayyomning gedonistizmi ta'sirini ko'rishimiz mumkin. Bedil o'rta asrlarning jaholatparasligiga qaramay, u dunyoga umid qilib bu dunyodagi ezgulikdan voz kechish kerakligiga qarshi chiqadi.

Mutafakkirning ba'zi she'rlarida Avestoda mavjud bo'lgan hur fikr g'oyalarini ko'rishimiz mumkin. Ushbu qadimgi kitobning turli qismlarida hayot madh qilinadi va go'zallik hamda serg'ayrat deb tasavvur qilinadi.

Bedil Islom va ayniqsa tasavvufning asosiy g'oyalarini qo'llab-quvvatlagan. Shuning uchun u Naqshbandiya tariqatining g'oyalari bilan tanish bo'lgan. Mazkur tariqatning g'oyalari ko'ra, ruhoniylar hukmdorlarga ta'sir qilishi mumkin. Ammo Bedil ushbu fikrga qarshi chiqadi. Bundan tasqari, yuqorida qayd etilganidek, faylasufning fikricha, inson o'z taqdirining egasi bo'lishi kerak. Naqshbandiya tariqatida inson tarkidunyochilikka berilishi kerak emasligi va mehnat bilan shug'ullanishi kerakligi haqida g'oya mavjud. Bu esa Bedilning fikriga to'g'ri keladi, chunki mutafakkir har bir mo'min musulmon o'z hayoti uchun mehnati bilan mablag' topishi kerak deb hisoblagan. Ushbu xulosaga Bedil o'z tajribasi orqali kelgan.

"Sharq Arastusi" Abu Nasr Farobiy "Fozil odamlar shahri" asarida adolatli jamiyat to'g'risida bayon etgan. Uning ta'kidlashicha, "Madaniy jamiyat, madaniy shahar (yoki mamlakat) shunday bo'ladiki, shu mamlakatning aholisidan bo'lgan har bir odam kasb hunardan ozod, hamma barobar bo'ladi, kishilar o'rtasida farq bo'lmaydi, har kim o'zi istagan yoki tanlagan kasb hunar bilan shug'ullanadi. Odamlar chin ma'nosi bilan ozod bo'ladilar, odamlarning tinchlik va erkinliklariga xalaqit beruvchi sulton bo'lmaydi. Ular orasida turli yaxshi odatlar, zavq lazzatlar paydo bo'ladi".

Bedil falsafasida ham Farobiylar qarashlaridagi kabi adolatli jamiyat kelib chiqishi, uning tuzilmasi va unda mavjud bo'lgan aloqalar bo'yicha aniq konsepsiya mavjud emas. Lekin bu haqida uning asarlarida ba'zi bir taxminlar mavjud. Masalan, faylasufning ijodida ijtimoiy guruhlarning tashkil topishi bo'yicha g'oyalarni ko'rish mumkin.

“Podshoh va uning atrofidagilari to‘kin sochinlikda va farog‘atda yashaydilar, dehqonlar esa faqirona hayot kechiradilar, ochlikdan o‘ladilar, zolimlardan azob chekadilar. Shoir o‘z zamonasi haqida alam bilan yozadi:

Mamlakat hokimiyat orasida qoldi:  
 Boyliklar ayrim shaxslar qo‘lida to‘plandi,  
 Oliy tabaqalar yerini dehqonlar hayday boshladilar,  
 Dehqonlarning ezilishi, chorasizlikdan  
 Podshohlar paydo bo‘ldilar, takabbur davlatpanohlar.  
 Fir‘avnlr nafsi, nasrudlar zo‘ravonligi  
 Hayotning barcha tomonlariga yoyildi.  
 Oltin va kumush o‘ljalar nimalar qildi.  
 Saroylar qurilishi, o‘zini xudo deb e‘lon qilishlar rasm bo‘ldi.

Ochko‘z va manfaatparast kishilar boylik uchun kurashib, qurollana boshladilar, va qo‘shin yig‘dilar. Natijada o‘zaro urushlar boshlanib, begonalar yerini zabt qilish odatga kirdi. Shunday qilib hokimiyat va davlat paydo bo‘ldi.

Bedil mehnatkash insonni ulug‘lagan va kuylagan. U yoki bu kasbni tavsiflab, u, inson o‘z rizqi uchun oziq topishi kerak, buning natijasida u ma‘lum bir hunar bilan shug‘ullanishi kerakligini e‘tirof etadi. Bedil davrida hindiston agrar davlat bo‘lgan. Ijtimoiy tuzilmaning bir qismi dehqonlar bo‘lgan. Ayniqsa, u barchani iste‘mol mahsulotlari bilan ta‘minlovchi dehqonlar mehnatiga yuqori baho beradi. Uning fikricha, u baxt saodatga erishishi mumkin. Hunari yo‘q odam arzimas va ojizdir.

Dil sozida nag‘mayu navolar ko‘pdir.  
 Aybu hunaru rangu safolar ko‘pdir.  
 Ko‘pik tilagingmu yo gavharmi murod?  
 Daryoda bahoyu bebaholar ko‘pdir.

Mirzo Bedilning ijtimoiy-siyosiy kontseptsiyasi uning “Irfon” asarida ham bayon qilingan. Janri bo‘yicha ushbu asar falsafiy-didaktik asarlar sirasga kiradi. Unda mutafakkirning siyosiy tuzilma modeli keltiriladi. Mazkur asarga ko‘ra, ijtimoiy guruhlarning shakllanishida asosiy vazifani dehqonchilik bajaradi. Dehqonlar oziq-ovqat va mollar almashuvini amalga oshirishadi. Bu yerda Bedil boshqa ijtimoiy guruh-savdogarlar vujudga kelishini aytib o‘tadi. Ijtimoiy munosabatlar, xususan, savdo paydo bo‘ladi (2, 28-35 b)..

Mutafakkirning fikricha inson ijtimoiy mavjudotdir. Unda o‘ziga xos axloqiy tamoyillar mavjud va shuning hisobidan u jamiyatda o‘z o‘rnini topadi. Bedilga ko‘ra jamiyat quyidagi tabaqalardan iborat: hukmdor hokimiyati, savdogarlar, olimlar va faylasuflar. Bedil Arastu va Aleksandr Makedonskiy haqidagi hikoyasi bilan u donishmand hukmdor ilm-fan va bilim hisobidan tarixda o‘z ismini qoldirishi mumkinligini ko‘rsatadi. Ushbu hikoyada Bedil yagona hukmdor va markazlashgan davlat haqida aytib o‘tadi. Chunki u urushlarning sababini ma‘lum hukmdorlarning g‘arazlari va tamagirligida ko‘radi. Markazlashgan davlat bo‘lmagan mamlakatda har doim urushlar bo‘ladi, deb hisoblaydi Bedil.

Bedilning ijtimoiy-siyosiy fikri u yashagan davrning turli tomonlarini qamrab oladi. O‘zining asarlarida u hukmdorlar va ularga yaqin bo‘lgan amaldorlar, feodal tuzilmaga, mehnat va hunarga, bilimga, ilmga, dinga, falsafaga va xokazolarga o‘z munosabatini bildiradi. U haqiqatni izlagan, ezgulikga intilgan va adovatga qarshi chiqqan. Shu bilan birga u Buyuk Mo‘g‘ullar tomonidan targ‘ib qilingan diniy-milliy fanatizmni; feodallar va harbiylar tomonidan dehqonlar va hunarmandlarni ishlatishning dahshatli usullarini, amaldorlarning rahmsizligini, ruhoniylarning jaholatparastligini tanqid qilgan.

Moldorlarga qara, fikrlari xom,  
 Kibru g‘ururlari o‘zlariga dom.  
 Bunday toshbag‘irlar uzuk ko‘ziga  
 Manglay ajiniday yozdiribdi nom.

O‘z ijodida Bedil ziddiyatlarga to‘la bo‘lgan yo‘lni topgan. Hayotining ma‘lum qismida u majzublilar va darvishlarning ta‘sirida bo‘lgan, o‘zi ham majzub bo‘lib qolgan; u so‘fiy bo‘lgan; keyinchalikda Qadimgi Yunoniston va Qadimgi Hindiston falsafasini o‘rganib, ularni tasavvuf bilan sintezlashtirish yo‘llarini izlagan.

Yey hayot mazmunini izlagan odam,  
 Har bir kitob satrin dilga aylama malham.

Bedil "Ruboiyot" in sayr et, topursan  
Dardu ibrat, tasavvuf, umr tadqiqin ham.

Darhaqiqat, o'rta asrchilik sharoitida ilg'or fikr-mulohazalarni hamma vaqt ham ochiq-oydin aytib bo'lmas edi. Shuning uchun Bedil fikrlarini xilma-xil obrazlarda, kinoya, istiora, tasavvuf, kalom iboralari, qoida va istilohlari vositasida ifoda qilishga majbur bo'ldi. Bedil eng yaxshi asarlarida o'z zamonasi uchun o'ta ilg'or fikrlarni ilgari surdi, yuksak, gumanistik g'oyalarni targ'ib qildi. U odamni "yeng oliy vujud" deb bildi va insondagi kamchiliklar, tanballik, makr, xiyonat, qalloblik, ochko'zlik, xasislik, kibr-havo, manmanlik kabi illatlar bilan kurashdi, insonni barkamol va benuqson ko'rishni, ya'ni "Hazrati inson" ni orzu qildi (6, 34-35 b)..

Bedilning fikricha, har bir inson, ayniqsa hukmdorlar odobli va o'qimishli bo'lishlari kerak. Bundan tashqari ular o'z-o'zini boshqara olishlari va boshqalarga to'g'ri yo'lni ko'rsatishlari kerak. Agarda hukmdorlar ushbu fazilatlaridan xoli bo'lsa, u o'zini va boshqalarni xato yo'lga olib keladi. Bunday hukmdorlarni Bedil munofiq deb hisoblaydi va ularga ishonish mumkin emas deydi.

Yeshak keriladi, to'qimi zarrin,  
Aslida na odob bor na din  
Sulton amalidan kerilgan odam  
Kamolga yetkazar o'z qabohatin.

Bedil ruhoniylarni oddiy aholini aldashda ayblagan. U dinga qarshi chiqmagan, lekin fanatizmni tanqid qilgan. Buni biz "Irfon" asarida ko'rishimiz mumkin. Mutafakkir tengsizlik va ayol kishilarning huquqsizligiga qarshi chiqadi. O'sha davrda hukmdorlarga sovg'a sifatida xotinlar keltirilgan (bu esa "nazar" deb nomlangan).

Ba'zan qasru hurlarga bo'lur oina,  
Ba'zan kishan, zanjirda holati bordir.

Bedil diniy marosimlarga qarshi chiqadi. U qalin pulini olayotganlarni tanqid qiladi. Xotin kishilarning haq-huquqlarini va jamiyatda tengligini qo'llab-quvvatlab, ularni kamsitishga qarshi chiqadi. Masalan, "sati" marosimi haqida aytib o'tib, unda Bedil nafaqat erkak, balki ayol kishilarga nisbatan adolatsizlikni ta'kidlaydi.

Dar shararzori qissai sitiyan,  
Ki zi chandin zabona dosht bayon,  
Garchi sayram ba sad kitob aftod,  
Lek in dog'am intixob aftod.  
(Dar Sararzori hikoya sayti,  
Bir necha tillarda ifodalangan,  
Kitob yo'l chetiga tushib qolgan bo'lsa-da,  
Men hali ham saylovdaman).

"Irfon" asarining maxsus bobida Bedil xattot, tikuvchi, to'quvchi, temirchi, qassob va hisobchilarning san'atini alohida belgilab o'tadi. Ularning har biri, mutafakkirning fikriga ko'ra, "o'z o'rnida hurmatga sazovor insondir". Agar inson qandaydir kasb yoki hunarga ega bo'lmasa, u komillikka intila olmaydi va buzuqlik yo'lga tushadi. Bu esa kambag'allikka sabab bo'ladi.

Bundan tashqari, Bedilning fikricha, dimog'dorlik jaholatning ifodasidir. Ushbu kosepsiyaning asosi shundaki, har bir inson tabiattan qandaydir hunar bilan shug'ullanishi kerak, chunki mavjudlik moddiy boyliklarni ishlab chiqishga olib keladi.

Senga orom, benishonlik bo'lsa manzur,  
Faqirlarga oshnolikdan topgil huzur.  
Dimog'ingda shuhrat zavqi bo'lsa paydo,  
Shohu amir oshnoligi bo'lgay zarur.

Mirzo Bedil insonlar o'rtasida adolatli munosabatlar bo'lishi to'g'risidagi qimmatli fikrlarini bayon etgan. Bedil podsholarni o'z xalqiga adolatli munosabatda bo'lishini, xalqqa nisbatan zolim, o'zgalar haqqiga xiyonat qilmaslikka, adolatli munosabatda bo'lishga chaqiradi.

Xalq ichinda sen zolimlik nomin olma,  
Ojizlarga zulm ko'rsatib, jonin olma.  
Ochligingdan o'lganda ham zinhor, zinhor,  
Chumolining og'zidagi donin olma.

Bedil ijtimoiy-siyosiy qarashlarining tahlili bizni mutafakkir adolatning targ'ibotchisi bo'lgan degan xulosaga keltiradi. Ezgulik, Bedilga ko'ra, insonlarning dinidan qat'iy nazar bir-biriga bo'lgan

yaxshi munosabatlardan tashkil topadi. Shu bilan birga dehqonlar, hunarmandlar va ijodkorlarga hurmat bilan yondashish muhim. Bedil uchun tenglik shundaki, har bir inson dinidan qat'iy nazar Yagona, ya'ni Yaratuvchi oldida teng (7, 24-25 b).

Bedil, ijtimoiy tenglikni mehnat, ilm-fan va san'atga bo'lgan hurmat bilan ko'rib, qalloblik, tekinxo'rlikni tanqid qiladi. Bedilning jamiyat haqidagi ta'limoti adolatli hukmdor va jamiyatni to'g'ri tashkil qilish g'oyasiga asoslanadi. O'z navbatida, ushbu masala ilm-fan va bilim hamda insonga bo'lgan e'tibor bilan bog'liq. Davlat donishmand-faylasuflar, savdogarlar, dehqonlar va hunarmandlardan iborat. Adolatli hukmdorning markazlashgan boshqaruvi, insonlarning diniy, milliy va ijtimoiy holatidan qat'iy nazar ijtimoiy tenglik davlatning asosini tashkil qiladi. Aynan adolatli davlat sharoitlarida, bedilga ko'ra, ahamiyatda yuksak axloqiy tamoyillar va insonlarning erkinligini amalga oshirsa bo'ladi.

Kishi tabiatin fosh etsa idrok,  
Faqat yaxshilikka etar ishtirok.  
Ilmdan bebaxra qoladi ta'bi  
Badfelidan kechib bo'lolmasa pok.

Bedil she'riyati bir tomondan islom falsafasi, ikkinchi tomondan qadimgi Hind falsafasidan sarchashma oladi. Ammo, uning ijodida musulmon Sharq xalqlari tafakkurining ta'siri ko'proq seziladi. L.Klimovichning yozishicha, "Bedil tili va uslubining o'ziga xos mohiyati shundaki, u an'anaviy ramziylikka qarshi isyonni aks ettiradi. Bu "Sabki Hindiy" – hind uslubi nomi bilan ustuvor bo'lgan uslub Hindistonda va boshqa joylarda yashagan shoirlarga ko'chib o'tgan".

Mirzo Bedil insonparvarlikni targ'ib etadi, insonniy fazilatlarini ulug'laydi, shu bilan birga yomon hislatlar va nuqsonlarni tanqid etadi. U insonni milliy va diniy farqlar nuqtai nazarida emas, balki umumbashariy inson naslidan ekanligi tushunchasidan kelib chiqqan holda yuksaklikka ko'taradi va aynan shuning uchun ham insonni eng yuksak hurmat va e'zozga loyiq, deb hisoblaydi.

Bedil falsafiy dunyoqarashining markazida ulug' faylasuf, ilohiyotshunos mutasavif shayx Muhitdin Ibn Arabiy asos slogan. "Vaxtad ul vujud" falsafasi yotadi. Jumladan, uning "Muxti A'zam" nomli masnaviyi ibn Al-Arabiyning "Fusus ul-Hikam" nomli mashhur asari ta'siri asosida yaratilgan bo'lib unda Bedil butun borliqni soqiysi Haq Taolo, azaliy va abadiy mastu maxburu esa inson bo'lmish yaxlit bir mayhona sifatida tasavvur etadi.

Bedil o'zining inson zotiga bo'lgan eng nozik pokiza va musaffo his tuyg'ulari va muhabbatini ifodalaydi. Shu bilan birga u vatanni va vatanparvarlikni ulug'laydi, chunki u o'z vatani – Hindistonni sevdi.

Neki go'zallikka egadir jahon  
Hindiston diyori bariga makon.  
Qoracha jononlar bari marg'ubmas  
Lek Laylo vatani shaksiz Hindiston .

Umuman olganda, Bedil jamiyat, davlat ularning mohiyatiga alohida e'tibor qaratar ekan ijtimoiy taraqqiyotda iqtisodiy omil ustunligini ta'kidlaydi. Dehqonning mehnati tufayli aholining soni tez sur'atda o'sib boradi, hunarlar, ilm – fan, savdo – sotiq, tijorat yuzaga keladi va rivoj topadi, qo'l xizmatini til orqali, til xizmatini qo'l vositasida amalga oshirib bo'lmasligini bayon etadi. Bedilning ijtimoiy falsafiy ayniqsa jamiyat to'g'risidagi g'oyalari Zebuniso, Anbar Otin, Dilshod otin, Muqimiy, Furqat, Ahmad Donish, S.Ayniy ijodi va dunyoqarashining shakllanishiga samarali ta'sir ko'rsatgan.

#### XULOSA

Shoir o'zining oliy janob fikr va g'oyalarin, oddiy insonlarga bo'lgan mehr-shavqatini va ayni paytda qabohat va iste'dodining jirkanchligini erkin orzu va xayollar oshig'i ekanligini o'zining "Komde va Mudan" dostonida mahorat bilan tasvirlab beradi. Asardagi raqqosa Komdening go'zalligini va unga oshiq bo'lib qolgan qo'chiqchi va cholg'uchi yosh Mudan sevgi muhabbatini butun seheru jozibasi bilan tarannum etgan. Doston haqiqiy sevgi, inson qadri, istedodning mislsiz qudrati haqidagi go'zal asar bo'lib, u har bir avlodni shunday yuksak tuyg'ular va ishqqa sadoqat va go'zallikka tan berish sari ilhomlantirayveradi. Shuningdek, dostonda do'stlik, muhabbat, vafodorlik, adolat, ilm-ma'rifat masalalri ham aks etgan. Bedilning ijtimoiy masalalarga oid qarashalarga ma'rifatparvarlik, muruvvat va odamiylik asosiy o'rinni egallaydi.

Demak, Bedil o'tmishdagi ko'plab mutafakkirlar kabi mamlakatni ma'rifatli va adolatli hukmdor boshqarishini har doim orzu qilgan.

**ADABIYOTLAR RO'YXATI**

1. Sattorova S. B. Unique study of the problem of justice and equality in the doctrine of human and society of MIRZA ABDUL QADIR BEDIL //Oriental Journal of Social Sciences. – 2023. – Т. 3. – №. 06. – С. 1-10.
2. Мўминов И. Мирза Бедилнинг фалсафий қарашлари. -Тошкент, Ўзбекистон, 1957-йил.
3. Мўминов И. Танланган асарлар1 жилд. - Т.: Фан. 1969.
4. Муминов И.М. Философское взгляды Мирзы Бедиля. - Ташкент: Изд-во Акад. наук УзР, 1957
5. Мирзо Абдулқодир Бедил. Комде ва Мудан Назармат таржимаси.- Т.: Ўзбекистон давлат нашриёти, 1960.
6. Мирзо Абдулқодир Бедил Рубойилар. Шоислом Шомуҳамедов таржимаси. – Тошкент, 1986.
7. Мирзо Абдулқодир Бедил. Рубойилар. Ж.Камол таржимаси. Т., 1991